
MAQSADINGIZ MA'NAVIYATGA TAHDIDMI? yohud "Ozodlik"ning mamlakatimizda majburiy obuna qilinayotgani haqidagi maqolasiga MUNOSABAT

"Ozodlik"ning yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda ma'lum qilgan xabariga qaraganda, emishki, O'zbekistonning hazinasi qurib qolgani uchun qo'shimcha soliqlar joriy etilib, undirish choralari ko'rilayotganmish. Yo, alhazar! Chetda turib O'zbekiston hazinasi ahvolini qayerdan bilib qo'yibdi havodan havoza yasayotganlar. Ha, aytgacha, axir ana shunaqangi shov-shuvli soxta ma'lumotlarni sotib kun ko'radilaru ular. Bu soxta "ma'lumot"ni endi qanchaga pulladingiz, birodar?

Aslida munosabatga arzimadasa, mamlakatda majburlab obuna qilinayotgani haqidagi maqola yuzasidan ayrim mulohazalar bildirish orqali "o'zini ma'lum qilishni istamaganlar"ning to'qimalari orqali xalqimizni o'zi tanlagan va dadil odimlayotgan yo'lidan chalg'itishga urinayotganlarga gap aytmoqqa chog'landik. Qabul qilinajak qonun loyihasi, Prezidentimiz qarorlarida majburiy obunaga yo'l qo'yilmasligi haqida aytilgani, jamiyatning eng ziyoli qatlami o'qituvchi yoki boshqa ma'rifatga intiladigan odamlar bosma nashrlarni o'qimasin, degani emasligini anglab olish uchun ortiqcha aql ham darkor emas.

O'qituvchi o'z nomi bilan ziyoli, u biron majburlamasdan ham tumani, viloyati, respublikamiz, jahon ayvonidagi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, iqtisodiy jarayonlardan boxabar bo'lish, unga munosabat bildirish va ana shu jarayonlarda qaynayotganini his qilish uchun ham vaqtli nashrlarga obuna bo'lishi tabiiy hol. To'g'ri, hozirda boshqa ommaviy axborot vositalari ham bor: televideniye, radio, ayniqsa, yolg'on-yashiqlarni yamlamay, butunicha yutadigan internetning ayrim tarmoqlari. Ular orasida tahminlarga emas, real fakt va dalillarga suyanadigan, kerak bo'lsa, asrlar davomida saqlanadigan bosma nashrlarning o'rni beqiyos.

Obuna jarayonini pedagogik va boshqa jamoadagilarning o'z hohishlari asosida, arizalariga muvofiq uyushgan holda tashkillanishida nima yomonlik ko'ryapti ekan, "Ozodlik"dagilar? Yoki o'quvchilarni ota-onalarining roziligi bilan bolalarbop nashrlarga jamoaviy obuna bo'lishi majburiy obuna emasligini tushunish shunchalar qiyinmi? Xususan, Qo'shtepa tumanidagi nomini ma'lum qilishni istamagan, "o'n yildan buyon pul to'lab, qaysi gazetaga obuna bo'lganini bilmagan" o'qituvchi go'yoki tuman xalq ta'limi bo'limi mudirining buyrug'ini jo'natgan emish! Qani aytgan gaplari tuhmat yoki "Ozodlik"dagilarning to'qimasi bo'lmasa, uning nomini oshkor qilsin-chi. Ana shunda holatga oydinlik kiritish mumkin bo'ladi. Bizdagi qonunlarda ommaviy axborot vositalari orqali tuxmat uyushtirishga qonuniy javobgarlik belgilangan.

"Ozodlik"dagilar balki shu yo'l bilan xalqimizning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy faolligini oshirishga, fuqarolik pozitsiyasi, tibbiy, huquqiy, ma'rifiy madaniyatini ko'tarishga xizmat qiluvchi bosma matbuot yo'lga g'ov tashlamoqchi, xalqni sarosimaga soluvchi shov-shuvlarga kengroq imkoniyat yaratmoqchi bo'layotgandir. Tarixga bir nazar tashlaylik. O'tgan asr boshlarida chor Rossiyasi o'lkamizga o'z mafkurasini zo'r berib olib kirayotgan bir paytda Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Mahmudxo'ja Behbudiy singari o'nlab ma'rifatparvar bobolarimiz milliy matbuotimizni tashkil etib, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashni boshlaganlar. O'z jonlaridan kechsalar-da, o'sha davridayoq hurriyatimiz tamal toshini qo'yib ketganlar. Va davrlar o'tib, ana shu faqat o'zimizga xos milliy mafkura O'zbekistonni O'zbekiston qilib dunyoga tanitdi. Bunda matbuotning o'rni va roli beqiyos ekanligini vatandoshlarimiz juda yaxshi biladilar.

Yana bir gap. Ayrim amaldorlar “Ozodlik”ning safatasini pesh qilib, Qo’shtepa tumanidagi maktab rahbarlaridan “majburiy obuna qilmaganman va bunday qilmayman”, qabilida tushuntirish, kafolat xatlarini talab qilayotgani hayratingni oshiradi. O’z soyasidan ham qo’rqadigan bunday rahbarlarning qarashlari bo’yicha barcha bosma nashrlarni yopib tashlash kerakdir, balki?! Bu aslida shu maqsadni ko’zlayotgan “Ozodlik”chilarning tegirmoniga suv quyishdan boshqa narsa emas-ku! Shoirimiz bir paytlar “nima bizga Amerika!” deb yozganiday, “Ozodlik” biz uchun kim ekanki, ayrim rahbarlar uning bo’xtonlaridan shu qadar qo’rqadilar?!

Endi “Ozodlik”chilar chuchvarani hom sanamasinlar. Hamisha ma’rifatga intiluvchi o’qituvchi, shifokor, fermer, oddiy ishchi, hatto o’quvchi bundan buyon ham ixtiyoriy ravishda o’ziga kerakli, o’qishni istagan gazetasiga obuna bo’laveradi! Uyushgan holda obuna bo’lish esa ularga qulaylik tug’diradi. Obunani targ’ib etish va unga da’vat qilish majburiy obuna emasligini tushunib olish uchun juda katta idrokning hojati bo’lmasa kerak, gapimizga qo’shilmasligingizning iloji yo’q, to’g’rimi?!

Xadichaxon KARIMOVA,

jurnalist

2019-12-06 08:25:09